

**BOLALARНИ ATROF-OLAM VA TABIAT BILAN
TANISHTIRISHNING AHAMIYATI**

Akzamov V.B

*SamDU, Maktabgacha va
boshlang'ich ta'lim fakulteti, katta o'qituvchisi*

Jumashov Q.V

*SamDU, Maktabgacha va
boshlang'ich ta'lim fakulteti, 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Maqolada MTT tarbiyalanuvchilarini ekologik muammolarini bartaraf etishda dastlabki ekologik tarbiyani shakillantirishda tarbiyachining roli xaqida boradi va ularga ayrim ko'rsatmalar beriladi.

Kalit so'zlar: ekskursiya, sayohat, tabiyat, atmosfera, amaliy tajriba, gaz, hashoratlar, xayvonlar,

Mustaqil O'zbekistonimiz milliy davlatchiligi poydevori kun sayin rivojlanib bormoqda. Shu qatori barcha sohalar, ya`ni ta`lim sohasida ham o`zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ta`lim tizimini isloh qilish bilan bir qatorda, Maktabgacha ta`lim tizimiga ham bir qator o`zgartirishlar kiritilmoqda. 2017-yil 30-sentabr kuni Maktabgacha ta`lim Vazirligi tashkil topgani buning yaqqol dalilidir. Shu qatori "2017-2021 yillarda Maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to`g`risida"gi PQ-2707-sonli Maktabgacha ta`lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risidagi PF-598-sonli Farmoning qabul qilinishi bolalar tarbiyasiga kata ahamiyat berish lozimligi ko'rsatib o'tilgan. Bugungi kunda yer yuzida ekalogiyaning keskin o`zgarishi butun insoniyatga xayotiga xavfi kundan kunga keskinlashmoqda Bu muammolarni oldini olish mifik talim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan yosh avlodni ekologik bilimlarni shakllantirishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun bolajonlarga atrof-olam haqida tushuncha berar ekanmiz, dastlab tabiat haqida ma`lumot berishimiz, kerak. Tabiat – bitmas – tiganmas xazinadir. O`simliklar dunyosi, hayvonot olami yosh qalbning to`g`ri o`sib shakllanishida, tabiatda bo`ladigan voqeahodisalarning sir-asrorini o`rganib voyaga yetishi katta manba bo`lib xizmat qiladi. Tabiat bilan inson o`rtasidagi uyg`unlikni ta`minlashda ekologik ta`lim- tarbiyaning roli nihoyatda katta. Ta`lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan uzlusiz ekologik ta`lim va tarbiya insonning tabiatga, qolaversa, o`ziga nisbatan yangi munosabatlarning shakllanishini taqazo etadi. Bu o`z navabatida barkamol insonning shakllanishida poydevor bo`lib xizmat qilishi mumkin. Tabiatga nisbatan muhabbat uyg`otish ona, Vatanga, uning tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalari, xalqimizning an`analariga hurmat ruhida tarbiyalashga, yuksak ma`naviyatli shaxsning shakllanishiga

olib keladi. Insonni tabiatdagi o`rni va bolalarni dunyoqarashlarini shakllantirish. Inson o`zining kelib chiqishi moddiy va ma`naviy talablariga binoan jonli va jonsiz tabiat bilan uzviy bog`liqdir. Insonning biosfera tutgan o`rni 2 tomonlama bo`ladi. Ya`ni bu biologik obyekt bo`lib, muhitning fizik omillarga qaramdir, chunki bizni o`rab turgan atrof-muhitdan borliqdan nafas oladi, oziqlanadi va modda almashinishi natijasida tabiatni bizga bo`lgan foydasini va mehribonchilagini ko`radi. Insonning kelib chiqishi moddiy va ma`naviy talablarga binoan jonli va jonsiz tabiat bilan uzviy bog`liqdir. Insonning biosferada tutgan o`rni ikki tomonlama bo`ladi. Ya`ni bu biologik obyekt bo`lib, muhitning fizik omillariga qaramdir, chunki bizni o`rab turgan atrof-muhit borliqdan nafas oladi, oziqlanadi va modda almashinishi natijasida tabiatning bizga bo`lgan foydasini ko`radi. Insonlar jonjotlardan ajralgan o`ziga xos xususiyatlari bilan har doim ajralib turadilar. Ular o`z faoliyatları bilan tabiatga ta`sir etib, ya`ni madaniy muhit yaratadilar va uni mehnatlari hamda ma`naviy tajribalari asosida avloddan-avlodga o`tkazib boradilar. Inson o`simlik va hayvonlarni parvarish qilishi natijasida ularning yangi zod, navlarini yaratadi, ko`paytiradi. Bolalar esa mana shu yaratilgan yangi zod va navlarni ko`rishlari natijasida ularda tabiatga bo`lgan qiziqishlari ortdi. Dunyodagi bo`layotgan o`zgarishlarga boshqacha ko`z bilan qarashni boshlaydilar. Tarbiyachi va oila tarbiyachisi bolalarga bilim berishda o`zining bilim doirasini kengaytirishi har bir sohadan xabardor bo`lishi kerakdir. Tabiatda bo`layotgan voqeа va hodisalarни bolalarga tushunarli, aniq ravon , yoshiga mos holda yetkazish kerak va bu har bir tarbiyachi hamda oila tarbiyachidan talab etiladi. Eng asosiysi tarbiyachi hamda oila tarbiyachisi bolalarga o`zining yashab turgan joyining shart-sharoitlarini, undagi bo`layotgan o`zgarishlarni, o`simliklarni, hayvonlarni va ularni qayerda uchratishimiz mumkinligi haqida bilim hamda tushunchalar berib borishi kerak. Shunga asoslangan holda tarbiyachi o`simliklarni o`stirish, hayvonlarni parvarishlash hamda ular bilan ehtiyyotkorlik munosabatida bo`lish malakalarini tarbiyalab boradilar. Kelajak avlodni barkamol kishilar qilib tarbiyalash shu kuning dolzarb masalaridan biri bo`lib hisoblanadi. Bu borada bolalarni tabiat bilan tanishrirish muhim ro`l o`ynaydi. Tarbiyachi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda Tarbiyachi va oila tarbiyachisi o`simliklarni, hayvonlarni to`g`ri parvarishlashi va o`zi bolalarga buni o`rgataolishi talab etiladi. Tarbiyachi va oila tarbiyachining talabchanligi hamda kerakli bilimlarga ega bo`lishi, bolalarda qiziquvchanliklarini hamda mehnat ko`nikmalarini rivojlantiradi. Bolalarning bilimlarini oshirish, qiziquvchanliklarini o`stirish natijasida tarbiyachining o`z sohasiga bo`lgan qiziqlishi yanada orttadi va tabiatda bo`layotgan voqeа-hodisalardan yanada ko`proq bilimga ega bo`lishga harakat qiladiradi. Tarbiyachi bolalarga asosiy bilimlarini mashg`ulotlarda chuqurroq berishi, o`stirishi, ko`paytirishi, rivojlantirishi kerak bo`ladi. Bolalar qiziquvchan xalq bo`lganligi sababli mashg`ulot vaqtida ham turli savollar beraveradilar, mana shu savollarga tarbiyachi javob berishi uchun dunyodagi voqeа- hodisalardan ham xabardor bo`lib turishi kerak. Tarbiyachi va

oila tarbiyachisining oldiga qo`yiladigan talablar.

Tabiat bilan tanishtirish mashg`ulotlarini o`tkazishda sayr, va ekskursiyalarni tashkil etishda tarbiyachi va oila tarbiyachisining oldiga quyidagi talablar quyladi.

1. Tabiat haqida to`liq tushunchani hosil qilish
2. O`simliklar, hayvonlar, hasharotlar, qushlar, baliqlar haqida umumiy ma`lumotga ega bo`lish.
3. O`simlik, hayvonlar, hashoratlar, qushlar va baliqlarni parvarish qilish,
4. Bolalar yoshiga mos jonzotrlarni tanlay bilish.
5. Jonzotlar bilan ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo`lish va bolalarga to`g`ri tushuncha berish zarur deb hisoblaymiz.

Kelajak avlodni barkamol kishilar qilib tarbiyalash shu kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu borada bolalarni tabiat bilan tanishtirish muhim rol o`ynaydi. Shunga ko`ra mакtabgcha ta`lim tashkilotlarida ishlayotgan tarbiyachilar oldida bolalarda tabiat go`zaliklarini ko`ra bilish, uni sevish, tabiatda yuz berayotgan voqeа, hodisalar haqida to`g`ri tushunchalar hosil qilish, ularga ekologik talim-tarbiya berishdek muhim vazifa turadi. Tarbiyachi eng avvalo o`zi tabiatni sevuvchi, jonli va jonsiz tabiat haqida aniq bilimlarga ega bo`lmog`i lozim. Tarbiyachi bolalarni tabiat bilan tanishtirish uchun “Uchinchi ming yillikning bolasi” tayanch dasturida berilgan tabiatga oid bilimlar bilan tanishib chiqqan va har bir yosh guruh uchun berilishi lozim bo`lgan bilim, ko`nikma, malakalar haqida to`liq ma`lumotga ega bo`lishi zarur. Tarbiyachi har bir faslda olib boradigan tabiat haidagi bilimlarini to`g`ri rejalashtirishi, yer maydonchasidagi o`simliklar, tirik burchakdagi xona o`simliklari, akvariumda, terraruimda yashovchilarni parvarish qilish ko`nikmalarini, qafasdagи qushlar va mayda sutevizuvchilar bilan tanishtirishni to`g`ri yo`lga qo`yishi zarur. Tarbiyachi bolalarni yuqoridagilar bilan tanishtirar ekan, ularning dunyoqarashini shakllantirib jonli-jonsiz tabiatning xususiyatlarini o`rganib, ular haqida dastlabki tushunchalar beradi. Bolalarning tabiatdagi mehnati katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Mehnat qilish jarayonida bolalarda tabiatga bo`lgan munosabatlar shakllanadi. Mehnat jarayonida bolalar o`simliklar holatini yorug`likka, namlikka, issiqlikka, yaxshi tuproqqa bo`lgan ehtiyojlarining qondirishishiga bo`gliq ekanligini anglab oladilar. Bolalar muhit o`zgarishi, qonuniy tarzda o`simliklar holatini ham o`zgartirishini bilib oladilar. Bu munosabatlarni o`zlashtirishlari ularning mehnatga bo`lgan munosabatiga ham ta`sir etadi- mehnat ongli va maqsadga yo`naltirilgan bo`lib boradi. Bolalarda mehnatga qiziqish, mehnatsevarlik shakllanadi. Tabiatdagi mehnat- kuzatuvchanlikni o`stirish usullaridan biridir.

- o`zining, tengdoshlari va kattalarning mehnatini qadrlashga o`rgatish.
- tabiat orqali psixik jarayonlarni rivojlantirish (sezgilar,idrok,xotira, xayol, tasavvur, nutq, diqqat).
- bolalarni hissiyotini irodasini rivojlantirish.

- tabiat in`om etgan ne`matlarni avaylab asrashga o`rgatish. Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda bolalarni har tomonlama tarbiyalashda tabiat orqali

-Aqliy tarbiya; -Axloqiy tarbiya;-Nafosat tarbiyasi; -Jismoniy tarbiya; -Ekologik tarbiya; -Iqtisodiy tarbiya berish lozim. Tabiat vositasida tarbiya berish umumiy tarbiyaning biq qismi bo`lib, u o`z oldiga bolalarning yosh xususiyatlarini, bilish jarayonlari, qobiliyatlarini yaxshi bilgan holda tarbiya berishni vazifa qilib qo`yadi. Maktabgacha tarbiya ishida uning ko`p qirralari borki, bu pedagogika fani qonuniyatlarini o`rganish bilan shug`ullanadigan juda keng ijtimoiy hodisadir.

Bolalarni atrof-olam va tabiat bilan tanishtirishning ta`limiy- tarbiyaviy vazifalari:

Aqliy tarbiyadagi asosiy vazifasi bolalarda jonsiz tabiat o`simliklar, hayvonlar haqida ma`lumot berish ularning tabiat voqealari-hodisalarini yetarlicha idrok rta olishlariga imkon beradi. Aqliy tarbiyaning ajralmas qismi sensor madaniyatdir. U analizatorlarni takomillashtirish, bolalarda keying umumlashmalar uchun asos bo`ladiga hissiy tajribani mustahkamlash tabiatshunoslikka oid dastlabki tushunchalarni shakllantirishga yo`naltirilgan.

Bolalarni tabiat haqidagi bilimlarini egallashlari ularning bilish qobiliyatlarini sensor aparati, mantiqiy fikrlash, diqqat, nutq, kuzatuvchanlik, bilishga qiziqish kabilan bilan mustahkam bog`langan bo`lishi kerak. Bolalarga hayvonlar va o`simliklar qanday kuzatishini ko`rsatish, ularning diqqatini ularning tashqi ko`rinishini, harakatiga qaratish orqali tarbiyachi ularda nafaqat tabiat haqida bilimlarni balki ularga ma`sliyatli munosabatni shakllantiradi. Faqatgina har doim bolaning yoshini hisobga olish va uning diqqatini mazkur predmet va hodisadagi predmetlarga qaratishni bilish zarur. Bolalarni atrof-olam va tabiat bilan tanishtirish jarayonida axloqiy, jismoniy, mehnat va estetik tarbiyani amalgalash oshirish zarur.

Tabiat bolalarni estetik tarbiyalashning asosiy vositalaridan biridir. Tabiatning go`zalligi hatto eng kichik bolalarni ham o`ziga rom qilmasdan qolmaydi. Ularni tabiatni bilish jarayonida e`tiborlarini o`rmoning shovqinlari, qushlarning sayrashi, barglarning shaklli va rangi, gullarning hidlari hayvonlarning harakatlariga qaratishlari kerak. Buning muhim jihatni kelajakda o`z hayotiga dunyoning barcha va xilma-xil go`zalikllarini idrok eta olishga sharoit yaratishdir. Tabiat bilan tanishtirish mashg`ulotlarini o`tkazishda sayr va ekskursiyalarni tashkil etishda tarbiyachi hamda oila tarbiyachisining oldiga qo`yiladigan talablar:

1. Tabiat haqida to`liq tushunchaga ega bo`lish.
2. O`simliklar, hayvonlar hasharotlar, qushlar va baliqlarni parvarish qilish, oziqlantira olishni bilish.
3. O`simliklar, hayvonlar hasharotlar qushlar va baliqlar haqida umumiy ma`lumotga ega bo`lish.
4. Bolalar yoshiga mos jonjozotlarni tanlay bilish.

5. Jonzotlar bilan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo`lish va bolalarga to`g`ri o`rgata olish.

Bolalarни табиат билан таништирish avvalida о`ргатиб келинмоқда. Биз шарқ олимлари ва ўевропа олимлари асарларida ham ekologik tarbiya va atrof-olam tushunchasiga to`xtalib o`tishimiz lozim emas o`ylaymiz.

XULOSA

Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga ekologik tarbiya va atrof-olam tushunchasini о`ргатиш tarbiyachi yordamida amalga oshirilar ekan. Bu jarayonda MTT va oila hamkorligi ham muhim ahamiyatga ega. Bola ko`ra boshlanidanoq о`ргатади. Atrof –olam tushunchasini о`ргатиш MTTda va oilada birgalikda olib borilsa, tarbiyalanuvchi tabiatga nisbatan mehr-muhabbatli, muruvvatli va rahmdillik hissi yaxshi shakllanadi. Ekologik tarbiya va atrof-olam tushunchasini о`ргатишда bolalarda tabiat tushunchasini shakllantirish, undan so`ng metodlar haqida bilim berilsa maqsadga muvofiq bo`lar ekan. Tarbiyalanuvchilarga tabiat haqidagi tushunchani amalga oshirishda pedagogik ishning shakllari va usullari faoliyatidan foydalananailadi. Pedagogik ishning turlarini tushuntirish bo`yicha ishlar olib borilganda, sodda ko`rinishda ketma –ketlik asosida ishlar olib boriladi. Albatta, bu jarayon ko`rgazmali qurollar, AKT mahsulotlari yordamida amalga oshiriladi. Mustaqil ravishda tabiat markazida ishlashga о`ргатишда tarbiyachi bolalarga ko`maklashib, ishni bosqichma-bosqich amalga oshirishi lozim. Bolalar fikrlari sezilarli darajada oshadi, bu birinchi navbatda bolalarda tabiatga nisbatan mehr tuyg`usini barq urdiradi. Pedagogik ishning shakllari va usullari tarbiyalanuvchida bir qator qo`shimcha imkoniyatlarni ochib beradi, shu jumladan atrofdagi dunyo bilan tanishish, undagi o`simliklar, hayvonlar olamini ko`ra olish xususiyatlarini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ilk qadam” Davlat dasturi. T-2018.
2. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yilgan davlat talablari “T-2018”.
3. Ашиков В.И., Ашиков С.Г. Программа и руководство по культурно экологическому воспитанию и развитию детей. – М.: Дошкольное воспитание , 2012. – 164 с.